

OLENKA YOKI TUKLI CHIPOR QO'NG'IZINING AYRIM BIOLOGIK HUSUSIYATLARI

Ahmadjonova Sadoqathon Shokirovna

Farg'ona davlat universiteti

Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida dotsent, PhD.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zararkunanda turlardan biri, chipor qo'ng'izlar to'g'risida fikr yuritilgan. Olenka qo'ng'izlari keng tarqalgan tur bo'lib zararkunandalik bilan xayot kechirishi, past xaroratda o'z tirikligini saqlashi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ishning yutug'i muallif hozirga kelib yil sayin populyatsiya zichligi ortib borayotgan Scarabaeidae oilasiga mansub Olenka yoki chipor qo'ng'iz to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirgan.

Kalit so'zlar: chipor qo'ng'iz, g'umbak, Coleóptera, g'umbak, imago, qurt, lichinka.

Аннотация. В этой статье рассматривается один из видов вредителей, жуки-оленки. Были получены данные о том, что жуки-оленки, являясь распространенным видом, ведут вредительный образ жизни, сохраняя свою жизнеспособность при низких температурах. Успех работы автор привел данные о жуке Оленке, принадлежащем к семейству Scarabaeidae, плотность популяции которого в настоящее время растет.

Ключевые слова: Оленка, жук, Coleóptera, кокон, имаго, гущеница, личинка.

Abstract. This article discusses one of the types of pests, deer beetles. Data were obtained that deer beetles, being a common species, lead a harmful lifestyle, maintaining their viability at low temperatures. The author cited data on the Deer beetle belonging to the Scarabaeidae family, whose population density is currently growing.

Keywords: Olenka, beetle, Coleoptera, cocoon, imago, caterpillar, larva.

Kirish. Qattiq qanotlilar (Insecta: Coleóptera) hasharotlar sinfining eng ko'p va hilma-hil tashqi ko'rinishga ega turkumlaridan biri hisoblanadi. Bu turkum vakillari ichida zararkunanda, foydali, yirik yoki mayda vakillarini uchraydi.

Qo'ng'izlar keng tarqalgan deyarli barcha landshaft va geografik zonalarda yashashga moslashgan turlardan hisoblanadi. Scarabaeidae oilasi olimlar tomonidan o'rganilishiga qaramay hali ham Farg'ona vodiysi sharoitida Olenka yoki chipor qo'ng'iz biologiyasi to'la o'rganilmagan.

Oltin bronza, yoki oddiy bronza *Cetonia aurata*. Uzunligi 23 mm gacha bo'lgan nisbatan katta qo'ng'izlar. Oltin bronza butun dunyoda keng tarqalgan. Ular o'simliklarning generativ organlari gullar bilan oziqlansada, o'simliklarga jiddiy zarar etkaza olmaydi. Shu sababli oltin qo'ng'izga nisbatan qat'iy kurash choralari mavjud emas. "Cetonia" qadimgi yunon tilida metall qo'ng'iz" degan ma'noni anglatadi. Tur nomi "aurata" lotin tilida "oltin" (10) ma'nosini beradi. Hayot siklining lichinka bosqichida yog'ochli o'simliklar bilan bog'langan oltin bronza

faqat daraxtlar yoki butalar [biotopida](#) uchraydi. Shu sababli ularni, bog`, o'rmon va dasht zonalarida ham uchratish mumkin. Tana uzunligi 13-22,5 mm, kengligi 8-11,3 mm. Qo'ng'izlarning tanasi cho'zinchoq-oval, qorin qismi biroz keng orqaga qarab biroz toraygan. (10), Bronza qo'ng'izlari, tilla qo'ng'izlar (Cetoniini) — plastinka mo'ylovli qo'ng'izlar oilasining kenja oilasi. Qo'n'izlarning tana uzunligi 1—10 sm. Ustki qanotlarining ikki yonida tirqishlari bo'ladi. Bronza qo'ng'izlari [uchganida ostki qanotlari ana shu tirqishdan chiqib yoyiladi, ustki qanotlari yoyilmasdan qorni ustida taxlanib turadi](#). Ularning 2700 dan ortiq turi bor, ko'pchiligi tropik mintaqalarda tarqalgan. O'zbekistonda 12 turi tarqalgan. Tog'li hududlarda yashil bronza qo'ng'izi (Netocia marginicollis) va paxmoq bronza qo'ng'izi yoki olenka (Epicometis turanica) o'simliklarning gulini yeb ziyon keltiradi. Bronza qo'ng'izlari ning qurtlari chiriyotgan yog'ochlar, kompostlar, o'rmon to'shalmasida, ayrim turlari chumolilar va kemiruvchilar inida rivojlanadi. Ayrim Bronza qo'ng'izlari, mas, olenka ekinlarga ziyon keltiradi. (10)

Tadqiqotning materiali va uslubi. Tadqiqotlar 2021-2022 yillari Farg'ona shahar va uning atrofidagi qishloqlarda olib borildi. Tahlillar tabiiy va laboratoriya sharoitida olib borildi. Qo'ng'izlar entomologik sachok orqali turli o'simliklarning generativ va vegetativ organlaridan tutib olindi.

Tahlillar natijasi: Hoziri vaqtga kelib qattiq qanotlilar orasida Olenka qo'n'izlari tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Olenkalar juda xavfli zararkunanda sifatida madaniy va tabiiy senozlarda o'zining zichligini tez oshirmoqda. Ularning ozuqa spektri juda keng bo'lib, a'ktiv harakatlanishadi.



1-rasm. Olenka yoki tukli chipor qo'ng'izi.

Tana uzunligi 8-13 mm, qora rangga ega, yuqori tanasi sariq yoki oq dog'lar yoki chiziqlar bilan qoplangan. Tanadagi tuklar ikki rangli: kulrang va sariq (qo'ng'izning orqa qismida tuklar kam sonli). Tananing pastki qismi siyrak tuklar

bilan qoplangan. Olenka qo'ng'izi tuzilishi zarar keltirishi yashash sharoiti bilan may qo'ng'iziga juda o'xshaydi. Qanotlarning rangi qora, elitrasida oq dog'lari mavjud. Qo'ng'izning asosiy ajralib turadigan xususiyati, qo'ngiz tanasida xid chiqaruvchi bezli xujayralar joylashgan bo'lib, o'zidan yoqimsiz hid chiqarib dushmanlaridan ximoyalanaadi. Qishki uyqusini yumshoq tuproqda 15-40 santimetr chuqurlikda o'tkazadi. U sovuqda, yomg'ir paytida, shuningdek tunda (bir santimetr chuqurlikda) yerga ko'milib oladi (erta baxorda), gullar ochilgan vaqtda esa gul ichiga yashirinib oladi. Qo'ng'izlar bahorda yilning issiq va sovuq kelishiga, tuproq qatlamlarini ilishiga qarab fevral oyining oxirida mart oyining boshlarida juda erta qishlovdan chiqishadi. Bu vaqtda ularning zarari minimal bo'lib sezilmaydi, qo'ng'izlar yovvoyi efimer o'simliklarning gullari bilan oziqlanadi, keyinchalik madaniy senozlardagi o'simliklarni gullashi va rivojlanishi bilan ular kuchli zarar etkazadi.

O'rtacha kunlik harorat 14⁰ ga ko'tarilganda (teplitsa sharoitida limon gullaganda, ertangi baxor gullari ochilganda) u qishlov joyidan chiqib, a'ktivlasha boshlaydi va darhol gullarni kemira boshlaydi. Magnoliya, pion, lolalar...da barglar, gultojbarglar, gulkosachabarglar, changchi va urug'chilarni iste'mol qiladi. Keyin mevali daraxtlar gullashi bilan ularga o'tadi. Qo'ng'izlar ko'payish oldidan va ko'payish davrida olma, nok, o'rik, gilos, gilos, shuningdek qulupnayga kuchli zarar etkazadi, ayni shu davrda bir gulkurtakda 5-8tagacha qo'ng'izlarni yig'ilishlarini kuzatish mumkin. Yovvoyi va madaniy o'simliklarning ko'plab turlarining gullarida olenkaning oziqlanishi qayd etilgan. Shu sababli gulkurtak to'liq zararlanadi. Qo'ng'izlarni ko'pincha katta-katta yer maydonlaridagi bog'larga zarar keltirishi mumkin. Qo'ng'izlarning yoppasiga uchishlari iyun oyining yarmigacha davom etadi. Mevali daraxtlarning gullashi tugagandan so'ng, u donli ekinlarga uchadi. Iyun oyining oxirida urg'ochilari tuxum qo'yishni boshlaydilar. Tuxumlarini govak, gumusli yerlarga qo'yishga xarakat qilishadi.

Qo'ng'izlar kunduzi, soat 09.⁰⁰ dan 16.⁰⁰ gacha o'simliklarning yosh organlari, xususan gullar bilan oziqlanadi. Sovuq havoda va tunda ular tuproqning yuza qatlamlariga yashirinishadi, iliq havoda esa barglarning pastki, gullarning ichki yuzasiga kirib yashirinishadi. Qo'ng'izlar mavsum davomida bir senozdan ikkinchi senozga tez ko'chib o'tadilar. Urg'ochilar go'ng, gumus va o'simlik qoldiqlarini afzal ko'rgan holda, yerga kichik uyumlarda tuxum qo'yadilar. Lichinkalar gumus bilan oziqlanib, taxminan 8 hafta davomida rivojlanadi. Uning lichinkalari chirindi bilan oziqlanadi va dalalarda, o'tloqlarda va begona o'tlar bo'lgan joylarda rivojlanadi. Shuning uchun, may qo'ng'izlarining lichinkalaridan farqli o'laroq, ular deyarli zarar etkazmaydi. C'umbakdan chiqqan yosh qo'ng'izlar tuproqda qishlash uchun qoladi.

Quyida Olenka qo'ng'izlarining ayrim oziqa o'simliklar guruhining ro'yxati keltirilgan.

Ranoguldoshlar	malina, maymunjon, do'landa, atirgul, olma, nok, olcha, gilos, na'matak, o'rik.
----------------	---

Gulhayridoshlar	G`o`za, tugmachagul, gulhayri.
Dukkakdoshlar	No`hat, mosh, yeryong`oq, o`tloq se bargasi, beda, akatsiya.
Zubturumdoshlar	Zubturum
Tutdoshlar	Oddiy tut.
Soyabonguldoshlar	Sabzi, ukrop, kashnich, petrushka.,
Murakkabguldoshlar	Qashqargul, romashka, mingyaproq,
Сапсаргүлдощлар	Gulsafsar.
Loladoshlar	Lola
Piyozdoshlar	Piyoz
Karamdoshlar	Qurttana, karam, turp, sholg`om.
Pionlar	Pion.

Qo'ng'izlarning ko'k rangga jalb qilinishi ilm-fan tomonidan isbotlanmagan, ammo ko'p dehqonlar ta'kidlashicha ularni yashil va ko'k rang jalb qilar ekan. Umuman olganda, qo'ng'izga qarshi kurash qiyin. Zararkunandalarni aniqlash uchun gullash davrida shikastlangan o'simliklarni diqqat bilan tekshirish kerak.

Qo'ng'iz lichinkalari o'simlik qoldiqlari detriti, qurigan yoki chiriy boshlagan daraxt ildizlari bilan oziqlanadi, bir yilda bir avlod beradi. Lichinkalar tashqi ko'rinishi sariq-oq rangdagi tanasi biroz egik. Lichinkaning tanasi juda katta, qalin, orqa tomonga egik, uzun va ko'p sonli tuklar bilan qoplangan. Bosh kengligi 4,4mm, uzunligi 2,8mm. Lichinkaning yuqori jag'lari qisqa, keng. Ularning ichki chetida 4 ta tishsimon o'simtasi bor. Anal sterniti juda uzun, uning tepasiga dag'al o'simtalar bor. Sternitning qolgan yuzasi qisqa, tekis, tuklar bilan qoplangan, ular orasida uzun tuklar ajralib turadi. Lichinka ikki marta tullaydi va shunga mos ravishda uch yoshga o'tadi. Rivojlanishining oxiriga kelib, lichinka tana uzunligiga 62 mm gacha yetadi. G`umbaklashish lichinka oziqlanadigan substraktda sodir bo'ladi. G`umbak ochiq turdagi, erkin, soxta pilla ichida yotadi. G`umbakda shakli qisqartirilgan qanotlarini ko`rish mumkin. Bosh ko'krak ostiga egilgan. G`umbaklik bosqichi qisqa, tuproq namligi va haroratiga bog`liq ravishda taxminan 2 hafta davom etadi. Qishlovga kirish qo'ng'iz va lichinka holatida kuzatiladi. Biroq, ayrim yillari anomal issiq ob-havo, yosh qo'ng'izlarni sentyabr oyida (kuzda), asosan iliq quyoshli kunlarda yer yuzasiga chiqishiga olib keladi. Umuman olganda, bu tur madaniy qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandasi hisoblanadi. Qo'ng'izlar meva va manzarali o'simliklarning gullariga kuchli zarar yetkazishi mumkin. Yetilayotgan va pishgan mevalarni iste'mol qilish orqali qo'ng'izlar mevalarga ham kuchli zarar etkazishi mumkin. (tut, malina)

Qo'ng'izlarni yo`qotish quyidagi tavsiyalarga rioya qilish kerak:

Kuzda tushgan barglarni maxsus joylarda yoqish.

Daraxtlardagi turli hil kovak va yoriqlarni davolang, chunki ularda lichinkalar to'planadi.

Tukli chipor qo'ng'izlarga qarshi kurashda samarali vosita, qo'ng'izlarni qo'lda yig'ish.

Xususiy uchastkalarda qo'ng'izlar yoyilgan taglikka (oq boz matoda ular yaxshi ko'rinadi.) daraxtlardan yoki gullardan shunchaki silkitiladi va keyin yo'q qilinadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедов М.Х., Ахмаджонова С.Ш. К экологии щелкунов (Coleoptera, Elateridae) Ферганской долины-2011-№2,-Аспирант и соискатель,147-154стр.
2. [Гиляров М.С.](#) Определитель обитающих в почве личинок насекомых.— М.: Наука, 1964.— 920с
3. [Медведев С. И.](#) Пластинчатоусые (Scarabaeidae). Подсем. Cetoniinae, Valginae//[Фауна СССР](#). Насекомые жесткокрылые.—М.— Л.:[Издательство АН СССР](#), 1964.— Т.10, вып. 5.— 375с.— (Новая серия №90).
4. Савковский П. П.Атлас вредителей плодовых и ягодных культур. — 5-е изд., доп. и перераб. — К.: Урожай, 1990.— С. 29.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.2005.1-jild.
6. [Ҳабибуллаев Ф. Н.,Ахмаджонова С. Ш](#) Особенности распределения проволочников по вертикальным зонам в естественных и культурных биоценозах Ферганской долины. [Vol. 1 No. 1 \(2022\): BEST SCIENTIFIC RESEARCH - 2022](#)
7. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi>
8. Труфанов, В. М.[Золотистая бронзовка](#). Сайт [ЗИН РАН\(zin.ru\)](#).
9. [Мирзахалилов, М. М. Ў.](#) (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ СОСТОЯНИЕ ПРУДОВ РЫБОВОДНЫХ ХОЗЯЙСТВ И СЕЗОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИХ. International scientific journal of Biruni, 1(2), 108-113.
10. [Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М., & Назаров, М. Ш.](#) (2021). КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ НЕКУЛЬТИВИРУЕМЫХ РЫБ В ВЫРОСТНЫХ ПРУДАХ РЫБХОЗА «НАМАНГАН БАЛЫК». Academic research in educational sciences, 2(5), 726-733.
11. [Mukimov, M. K. A., Mirzakhililov, M. M., & Nazarov, M. S.](#) (2021). Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm. The American Journal of Applied sciences, 3(05), 140-047.
12. [Mirzahalilov, M. M., Muqimov MA, N. M. S., Kim, S. I., & Mustafaeva, Z. A.](#) (2006). HYDROCHEMICAL INDEXES AND PHYTOPLANKTON COMPOSITION OF DIFFERENT TYPES OF WATER BODIES IN THE FERGANA VALLEY. O 'ZBEKISTON BIOLOGIYA JURNALI, 36.
13. [Муқимов, М. К. А., Мирзахалилов, М. М. Ў., Назаров, М. Ш., & Шарипова, Б. С.](#) (2022). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА

- (PSEUDORASBORA PARVA) KAK INVAZIVNOGO VIDA. Science and innovation, 1(D2), 50-54.
14. Mo, M. (2022). BALIQCHILIK HOVUZLARIDAGI BA'ZI TABIIY OZUQALARNING GIDROBIOLOGIK TAHLILI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 332-337.
 15. Xasanboyevna, R. D., & Salimovna, S. B. (2022). TABIIAT MUHOFAZASIGA EKOLOGIK ENDAШUV. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 306-313.
 16. Shamuradovna, M. M. F., Mirzakarim o'g'li, M. M., & Shokirovna, A. S. (2022). POLIZ QONGIZI-EPILYAXNA (EPILACHNA CHRYSOMELINA) NING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 702-706.
 17. Mirzakarim o'g'li, M. M., & Axmadali o'g'li, Y. A. (2022). BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 692-696.
 18. Mirabbos Mirzakarim o'g'li, M. ., & Abutolib Axmadali o'g'li, Y. . (2022). MATBUOT KONFERENSIYASI DARS MISOLIDA G'O'ZA GENETIKASI VA SELEKSIYASI MAVZUSI DOIRASIDA O'QUVCHILARNI BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 510–514. извлечено от
<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1406>
 19. Mansurjonova, G. (2020). The Main Notions Of Linguoculturology. Интернаука, (27), 85-86.
 20. Мирзакулов, А. М. (2022). ФИЗИК ХОДИСАЛАРНИНГ ЧИЗИКЛИ РЕГРЕССИЯ ТАХЛИЛИ. Science and innovation, 1(A3), 97-102.
 21. Мирзакулов, А. М. (2022). ФИЗИКА ФАНИДАГИ КИНЕТИК ХОДИСАЛАРНИНГ РЕГРЕССИОН ТАХЛИЛИ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 432-438.
 22. Muqimov, M. K. A. (2022, October). RESPUBLIKAMIZ BALIQCHILIGI RIVOJLANISHINI BUGUNGI HOLATI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 6, pp. 16-20).
 23. Mirzakarim o'g'li, M. M., Sharopovich, N. M., Abdulfatto o'g'li, U. F., & Adxamovich, M. M. (2022). SHAHRIXONSOY IXTIOFAUNASI BO 'YICHA DASTLABKI MA'LUMOTLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 202-206.
 24. Юнусов, М. М., Ахмаджонова, С. Ш., & Содикова, Ш. С. (2022). ЗАРАКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ОЛТИНКЎЗ (CHRYSOPIDAE) ОЙЛАСИГА МАНСУБ ТУРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 378-384.

25. Юнусов, М. М. (2022). ЗАРАРКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ХОНҚИЗИ (СОСЦИНЕЛЛИДАЕ) ОИЛАСИГА ВА ЙИРТҚИЧ ҚЎНҒИЗЛАРГА МАНСУБ ТУРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 107-116.
26. Азимова Ф. Х., Комилова Х., Ахмаджонова С. Ш. ВШИ - ОПАСНЫЕ КРОВООСОУЩИЕ ПАРАЗИТИЧЕСКИЕ НАСЕКОМЫЕ. стр729-735.
27. Akhmadjonova S., Kh.Kamalova. The role of advanced pedagogical technologies in the study of science. *Society and innovation*. Т.2020.№-1, P. 414-417.<https://inscience.uz/index.php/socinov/index>.
29. Akhmadjonova S., M. Akbarova. Use of nonstandard tests in teaching biology. Trends in the development of science and education in the context of globalization. Republican scientific practical Internet conference. Fergana.2017.
30. S.Isroiljonov, Usmonova S. N, S.Sh.Ahmadjonova QISQA MUDDATLI XOTIRA VA HARAKAT XOTIRASI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIKLIKLAR. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume-17_Issue-1_November_2022. p14-17.<http://www.newjournal.org/>.
31. Yunusov.M., S.Sh.Ahmadjonova, O. Q.Mirzaliyeva JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume-17_Issue-1_November_2022. p151-156<http://www.newjournal.org/>